



EKOLOGIK JURNALISTIKA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNİ

Qurbonboyeva Nodira Yusufjon qizi,
O'zDJTU, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda ekologik jurnalistikaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, iqlim jurnalistikasi tushunchasining shakllanishi hamda ekologik muammolarni yoritishda raqamli texnologiyalar va yangi media platformalarning ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ekologik jurnalistika, iqlim jurnalistikasi, iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, raqamli media, ekologik savodxonlik.*

Annotation. *In this thesis analyzes modern trends in the development of environmental journalism, the emergence of climate journalism as a new direction, and the importance of digital technologies and media platforms in covering environmental issues.*

Keywords: *environmental journalism, climate journalism, climate change, environmental issues, digital media, environmental awareness.*

Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Ekologik jurnalistika tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhit muammolarini jamoatchilikka yetkazish va ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim jurnalistik yo'nalish hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar singari Markaziy Osiyo davlatlarida ham ekologik jurnalistika masalalari so'nggi yillarda yanada dolzarb bo'lib bormoqda. 2020-yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo iqlim jurnalistikasi konferensiyasi ushbu yo'nalishni rivojlantirish masalalariga bag'ishlandi. Konferensiya davomida iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq muammolarni yoritishda jurnalistlarning roli va mas'uliyati alohida ta'kidlandi. Markaziy Osiyo respublikalaridan yig'ilgan yosh jurnalistlar ekójurnalistikaning yangi yo'nalishi — iqlim yo'nalishini taklif qilishdi, 2020-yilning 27-28 noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Iqlim jurnalistikasi bo'yicha birinchi Markaziy Osiyo konferensiyasi aynan shu mavzuga bag'ishlandi²³. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: atrof-muhit mavzularini yoritishning o'zi yetarli emasmi? Nima uchun yangi yo'nalishga ehtiyoj bor? Gap shundaki, bugungi kunda tabiat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda kuzatilayotgan o'zgarishlarning aksariyati to'g'ridan-to'g'ri iqlim o'zgarishi bilan bog'liq. Bu nafaqat

²³ "Toshkentda iqlim jurnalistikasi bo'yicha birinchi Markaziy Osiyo konferensiyasi o'tkazildi", maqola, Toshkent, 2020. URL: <https://anhor.uz/uz/events/toshkentda-iqlim-zhurnalistikasi-buyicha-birinchi-markaziy-osiyo-konferensiyasi-utkazildi/>



jurnalistlar, balki barcha insonlar uchun dolzarb masaladir. Iqlim o'zgarishi muammolari ekologik jurnalistlar diqqat markazida bo'lib kelgan, biroq Markaziy Osiyolik yosh jurnalistlar bu masalaga o'ziga xos yondashuvlarni taklif qilishdi. Masalan, qirg'izistonlik jurnalistlar "Ajrat va salomatlikka erish" nomli loyihani ilgari surishdi. Ushbu tashabbus sanoat chiqindilari va maishiy axlatning ortib borishi muammosiga e'tibor qaratish maqsadida ishlab chiqildi. Loyiha doirasida jurnalistlar chiqindilarni ajratib yig'ish tartibini, Bishkek va Toshkent shaharlaridagi chiqindi yig'ish nuqtalarini va chiqindilarning to'g'ri utilizatsiyasini o'rganishdi.

Videolavhalar orqali shahar axlat konteynerlariga tushgan chiqindilarning keyingi taqdiri, ularni kim yig'ishi va qanday saralanishini ko'rsatildi. Loyihaning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo aholisi ekologik savodxonligini oshirish va chiqindilarni ajratish nafaqat foydali, balki zarur ekanini isbotlash bo'ldi. Ikkinchi maqsad esa aholini chiqindilarni saralashga undash, qog'oz, shisha, plastik, polietilen kabi materiallarni yig'ish punktlari haqida xabardor qilish edi. Konferensiya ishtirokchilarining ta'kidlashicha, Markaziy Osiyo aholisi iqlim o'zgarishiga oid muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va yechimlari haqida yetarlicha xabardor emas. Umuman olganda, iqlim masalalariga e'tiborni kuchaytirish zarur. Shu bois, iqlim jurnalistikasi bu borada dolzarb yo'nalish sifatida shakllanishi mumkin. Ammo, mutaxassislarning fikriga ko'ra, iqlim jurnalistikasi ekologik jurnalistikadan alohida mustaqil yo'nalish sifatida shakllanmaydi. Balki, u ekologik jurnalistikaning tarkibiy qismi bo'lib, iqlim o'zgarishining eng muhim muammolariga chuqurroq e'tibor qaratishga xizmat qiladi²⁴. Yangi texnologiyalar va platformalarning paydo bo'lishi bilan ekologik jurnalistika auditoriyani jalb qilish va ushlab turish uchun turli media formatlaridan faol foydalana boshladi. Fotosuratlar, videolar va animatsiyalar kabi vizual materiallar ekologik muammolar haqida ma'lumot yetkazishning asosiy vositasiga aylandi. Internet rivojlanishi bilan ekologik jurnalistika onlayn resurslar tomon siljishni boshdan kechirmoqda. Saytlar, onlayn jurnallar va ijtimoiy tarmoqlar orqali atrof-muhit holati haqida dolzarb ma'lumotlarni olishni afzal ko'radigan odamlar tobora ko'payib bormoqda. Onlayn platformalar o'quvchilarga ma'lumotlarni tezroq olish, shuningdek, sharhlash va maqolalarni boshqa foydalanuvchilar bilan baham ko'rish imkonini bermoqda.

Mana shunday texnologiyalardan biri — "Ecolab"dir. Bu ekologiya sohasidagi muammolarni hal qilishga bag'ishlangan g'oyalar va loyihalar inkubatori bo'lib, kartografiya va ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalangan holda loyiha rahbarlari kompleks yondashuvni amalga oshiradilar — mutaxassislarni tayyorlash bosqichidan tortib, jurnalistik tergovlarni olib borish uchun to'laqonli platformalarni

²⁴ "В экожурналистике появится новое направление — климатическая журналистика", статья, Ташкент. 2020. URL: <https://nuz.uz/2020/12/03/v-ekozhurnalistike-poyavitsya-novoe-napravlenie-klimaticheskaya-zhurnalistika/>



yaratishgacha²⁵. “Ecolab” loyihasi Braziliyada joylashgan notijorat axborot agentligi — “O Eco” va Vashingtondagi Xalqaro Jurnalistika Markazi hamkorligida yaratilgan. Ushbu loyiha doirasida turli tashabbuslar amalga oshirilgan, ularning barchasi umumiy ekologik mavzu asosida birlashgan. Ushbu tashabbuslar orasida interaktiv xaritalar, mobil ilovalar, ta’lim dasturlari kabi vositalar mavjud bo’lib, ularning barchasi zamonaviy jurnalistlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Saytda taqdim etilgan tashabbuslardan biri «Oxpeckers.org» bo’lib, u Afrikadagi atrof-muhit muammolariga ixtisoslashgan birinchi jurnalistik birlashma hisoblanadi. Ushbu tashkilot o’z faoliyatida an’anaviy jurnalistika uslublarini ma’lumotlar tahlili va kartografiya vositalari bilan birlashtirib, Janubiy Afrikadagi jinoyatchilik sindikatlarining faoliyatini kuzatish bilan shug’ullanadi²⁶.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, sayyoramizdagi ekologik vaziyatning o’zgarishi bilan jurnalistikaning ushbu sohasi tobora dolzarb va ahamiyatli bo’lib bormoqda. Shu bois bugungi kunda ekologik jurnalistika rivojida bir qancha yangi tendensiyalar kuzatilmoqda. Masalan, ilgari ekologik jurnalistikada asosan atrof-muhitning moddalar va chiqindilar bilan ifloslanishi muammolariga e’tibor qaratilgan bo’lsa, bugungi kunda u iqlim o’zgarishi, bioxilma-xillikni saqlash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va boshqa global ekologik muammolar bilan bog’liq keng ko’lamli mavzularni ham o’z ichiga olmoqda. Bu esa o’z navbatida, ekologik jurnalistikaning zamonaviy axborot makonida muhim o’rin egallayotganini ko’rsatmoqda. Kelajakda esa ekologik jurnalistika nafaqat muammolarni yoritish, balki ekologik savodxonlikni oshirish va barqaror rivojlanish g’oyalarini targ’ib qilishda muhim axborot vositasiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. “Toshkentda iqlim jurnalistikasi bo’yicha birinchi Markaziy Osiyo konferensiyasi o’tkazildi”, maqola, Toshkent, 2020.
2. К.Алексеев. “Ecolab — новые технологии в экожурналистике”. <https://te-st.org/2013/12/17/ecolab-novye-tehnologii-v-ekozhurnalist/>
3. “В экожурналистике появится новое направление — климатическая журналистика”, статья, Ташкент. 2020.
4. <https://oxpeckers.org>

²⁵ К.Алексеев. “Ecolab — новые технологии в экожурналистике”. <https://te-st.org/2013/12/17/ecolab-novye-tehnologii-v-ekozhurnalist/>

²⁶ <https://oxpeckers.org/>